



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoiilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 28-noyabr, seshanba,
141 (23.860)-son

**KUN
HIKMATI**

Yoshingiz bir
joyga borganda
yoshlarga yomon
qarashdan
tiyiling

Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

Noto'g'ri hisobot berayotgan va daromadini yashirayotganlar faoliyati o'rganilishi kerak

27-noyabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi to'qson uchinchi sessiyasi o'tkazildi.

Sessiyani Kengash kotibiyati mudiri S.Usmonov boshqardi.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni ijrosi bo'yicha viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi rahbarlarining hisobotlari eshitildi.

Viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari O.Oqbo'tayevning ma'lum qilishicha, 2023-yil hududiy investitsiya dasturi doirasida qiymati 1,3 milliard dollarlik 1642 ta loyihani amalga oshirish orqali 22341 ta yangi ish o'rni yaratish belgilangan. Joriy yilning o'tgan davrida dastur doirasida qiymati 1,2 milliard dollarlik 1227 ta loyiha bajarilgan va 15776 ta yangi ish o'rni ochilgan. Buning evaziga o'rtacha 1 trillion so'mlik qo'shimcha qiymat yaratilib, soliq bazasini 250 milliard so'mga kengaytirish imkoniyati paydo bo'lgan.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 52,4 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga o'sishi ta'minlandi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 12,6 million so'mga yetdi.

Shuningdek, mahalliy budjet tushumlari 3,5 trillion so'mni tashkil etib, belgilangan reja 105 foizga bajarilgan.

– Ammo tahlillar natijasida bir qator yuridik korxonalarda tovar aylanmasi va ishchilar sonini yashirish yoki kamaytirib ko'rsatish holatlari kuzatildi, – dedi O.Oqbo'tayev. – Joriy yilning 1-oktabr holatida ro'yxatdan o'tgan 56392 ta yuridik korxonaning 15592 tasi faoliyat ko'rsatmayotganligi aniqlandi. Bundan tashqari, 495 ta yuridik korxonada tovar aylanish hajmini 2,9 trillion so'mga kamaytirganligi, 5323 ta korxonada esa hisobotlarda "0" hajm ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi. Lekin tovar aylanma hajmini "0" ko'rsatgan korxonalarda jami 40,1 million kVt/s elektr energiyasidan foydalangan. Xuddi shunday, 6979 ta korxonaning bank aylanmasi 2,7 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, tovar aylanish hajmi "0" ko'rsatilgan. 6199 ta yuridik korxonada yil boshiga nisbatan ishchilar soni 16576 nafarga kamaygan, 7500 ta korxonada ishchilar sonini 1 nafardan ko'rsatgan bo'lsa, 10493 ta korxonada ishchilar sonini "0" ko'rsatgan. Deputatlar mazkur holatlarni keskin

qoralab, bu borada nazoratni kuchaytirish, noto'g'ri hisobot berayotgan va daromadini yashirayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tegishli idoralarni jalb etgan holda o'rganish zarurligini ta'kidladilar.

Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i T.Mahmudov o'z hisobotida bosh boshqarma va uning tuman (shahar) bo'limlarida "Raqamli mahalla" markazlari tashkil etilgani, mahalla raislarining faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish maqsadida "Mahalla elektron" platformasi yo'lga qo'yilganini ta'kidladi. Shuningdek, "Ijtimoiy mahalla" axborot tizimi joriy etilib, barcha mahallalardagi aholi va tadbirkorlarning mavjud muammo va kamchiliklarini o'rganish bo'yicha so'rovnomalar o'tkazilgan. Buning natijasi bo'yicha zarur ma'lumotlar tegishli axborot tizimlariga kiritilgan.

Bugungi kunda viloyatda ish bilan band bo'lganlar 1 million 631,6 ming nafarni tashkil etadi. Ularning 649 ming nafari norasmiy sektorda faoliyat ko'rsatmoqda. Ishsizlar soni 141,2 ming nafar, ishsizlik darajasi 8,7 foiz bo'lib turibdi. Ishsizlik darajasi Payariq (9,4 foiz), Paxtach (9,2 foiz) va Ishtixon (9,1 foiz) tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan yuqori.

Joriy yilda 30 ming nafar fuqaroni ishga joylashtirish ko'zda tutilgan bo'lib, yilning 10 oyida 27 ming 454 nafar fuqaro ishga joylashtirilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar natijasida 1335 nafar nogironligi bo'lgan fuqarolar bandligiga ko'maklashildi. Umuman, doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish o'rinlarining barchasini hisobga olganda 582,2 ming nafar aholi bandligi ta'minlandi. 9,5 ming nafar ishsiz fuqaro 37 ta yo'nalishda kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitildi.

Mazkur hisobot muhokamasi chog'ida ish o'rinlarini yashirayotgan yoki konvert usulida haq to'layotgan korxonalar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga huquqiy baho berish, nogironligi bo'lgan shaxslar bandligini ta'minlash, bir martalik ish bilan ta'minlash markazlarida fuqarolar uchun qulayliklar yaratish masalalari yuzasidan deputatlar o'z fikrlari va takliflarini bildirdi. Sessiyada viloyat hokimining 2023-yil 8-noyabrda "Viloyat mahalliy budjetining 2023-yil I va II chorak daromadlar rejasini o'rtirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish to'g'risida"gi qarorini tasdiqlash, viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari-dan foydalanish, viloyatda avtomobil yo'llari obyektlarini qurish va ta'mirlash ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi va boshqa masalalar ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.



Tadbirkorlar bilan uchrashuv haftaligi

TO'SIQ BO'LMASA, TADBIRKORLAR FAOLIYATIDA YUTUQ BO'LADI

Yoshlar markazida viloyat hokimining tadbirkorlar bilan navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Unda tadbirkorlar va shu faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan fuqarolar imtiyozli kredit olish, elektr energiyasi, gaz tarmog'iga ulanish, kadastr hujjati tayyorlash, yer ajratish, buzilgan yoki davlat va jamoat ehtiyoji uchun olingan bino uchun kompensatsiya to'lovlarini undirishda yordam berish kabi masalalarda viloyat hokimiga murojaat qildi. Uchrashuvda ishtirok etish uchun 50 dan ortiq tadbirkor Savdo-sanoat palatasidan ro'yxatdan o'tib, muammosini bildirgan bo'lsa, uchrashuvga 24 ta murojaat hal etildi. Viloyat hokimi bilan uchrashuvda 80 dan ortiq tadbirkorning muammolari tinglanib, ularga ijobiy yechim topish bo'yicha tegishli mas'ullar va muddatlar belgilandi. Payariq tumanidan kelgan tadbirkor Zuhra Eshquvovatova 2020-yilda katta miqdordagi kredit hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etganini, ammo kovid cheklovlari tufayli tashkilot ishga tushirilmay qolganini bildirdi. Tashkilot ishga tushirilsa, 25 ta yangi ish o'rni yaratilishi, 250 nafargacha bolani qamrab olish imkoniyati borligi aytiladi. Hozirda arxitek-

turadagi tushunmovchilik tufayli bino foydalanishga qabul qilinmayapti.

Viloyat hokimi qurilish sohasi mas'ullariga binoni joyida o'rganish va foydalanishga topshirish choralarini ko'rish bo'yicha topshiriq berdi.

Ishtixonidan kelgan tadbirkor Shohsanam Sodiqova kasanachilik asosida 17 nafar fuqaroni ish bilan ta'minlagan va non ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Endi faoliyatini kengaytirish uchun imtiyozli kredit olishida tumandagi ayrim mas'ullar to'sqinlik qilayotgani bo'yicha murojaat qildi. Bu murojaatni ham qisqa muddatda o'rganib, yechim topish choralarini ko'rilishi belgilandi.

Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi 10-uy manzilidagi noqonuniy qurilishning aholiga noqulaylik tug'dirayotgani bo'yicha Manzura Ne'matjonovaning murojaatiga ko'ra ishchi guruh tuzilib, joyida o'rganiladigan bo'ldi.

Viloyat hokimining tadbirkorlar bilan shu kabi uchrashuvlari 29-noyabr kuni Urgut tumanida, 30-noyabrda Kattaqo'rg'on shahrida va 2-dekabrda Payariq tumanida o'tkaziladi.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

INDALLOSINI AYTGANDA...

**Zuhriddin ISOMIDDINOV,
adabiyotshunos olim,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi:**

– Ilmni rivojlantirmagan mamlakat yering osti to'liq oltin bo'lsa ham taraqqiyotga erishmaydi. U bir kun kelib tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun chuqur fundamental tadqiqotlar ilmfanimizning asosi bo'lishi kerak.



Nuroniylar Ishtixonda

Ishtixon tumani Chag'atoy mahallasi-da "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlari asosida hudud infratuzilmasi yaxshilanib, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratilmoqda.

"Nuroniylar" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, Oliy Majlis Senati a'zosi Sodiqjon Turdiyev ushbu tizim asosida mahallada amalga oshirilayotgan bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishleri bilan tanishdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mahalla hududida mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Shuningdek, nuroniylar, o'rta avlod vakillari hamda yoshlar ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" tashkil etildi.



G'ALABA HAMMAMIZNIKI



Italiyaning Montesilvano shahrida o'tkazilgan shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida O'zbekiston tarixida qizlar o'rtasida ilk jahon chempioniga aylangan hamyurtimiz 14 yoshli Afruza Hamdamova Samarqandda tantanali kutib olindi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Afruza, uning otasi hamda ustoz Akbar Hakimovni jahon chempionatidagi tarixiy g'alabasi bilan tabriklab, ularning kelgusi ishlarida muvaffaqiyat tiladi. Ularga viloyat hokimining tashakkurnomasi va qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

– G'alaba nafaqat meniki, balki oila a'zolarim va xalqimizniki ham, – dedi shaxmat bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempioni Afruza Hamdamova. – Bu juda qiyin g'alaba bo'ldi. Raqiblarimning barchasi tajribali shaxmatchilar edi. Buning ustiga, viza sababli musobaqaga kechikib bordim va birinchi turni ochkosiz o'tkazib yubordim. Raqiblarimga qarshi bir necha yildan buyon o'ynab kelganim sababli qanday yurishlarni amalga oshirishini yoddan bildirdim. Asosiy o'yinlarda qora ranglarda o'ynash qiyinchilik tug'dirdi. Agar ular xato qilsagina mening g'alaba qozonish imkoniyatim oshardi. Xato qilmasa, o'yin durang bilan yakunlanardi.

Raqiblarimning asosiy kamchiligi oxirida endshpilda yaxshi o'ynay olmasligi bo'ldi. Shu sababli qaysi rangda bo'lishimdan qat'i nazar, g'alaba qozondim. Eng katta maqsadim – O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarish, ayollar o'rtasida eng yosh grossmeys-terga aylanish.

F.RO'ZIBOYEV.

Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi.

Bosh qomusimizning 72-moddasida belgilangan ushbu tamoyil viloyatimizda to'lasinch hayotga tatbiq etilmoqda. Misol uchun, xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga joriy yildagi faoliyati uchun 4 milliard 186 million 510 ming so'm miqdorda pul mablag'lari ajratildi (Davlat subsidiyasi - Nogironlar, Ko'zi ojizlar, Karlar jamiyati va Nogironlar assotsiatsiyasi viloyat bo'limiga - 2 801 116 229,32 so'm, davlat granti loyihalari uchun 1 173 991 770,68 so'm).

Viloyat hokimligi tomonidan 2023-yilda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular bilan joylardagi dolzarb muammolarga yechim topish bo'yicha ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Shuningdek, xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi tomonidan "Yo'l xaritasi" da belgilangan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish choralari ko'rilmoqda.

Jumladan, jamoat komissiyasi (23 nafar davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari hamda deputatlar) tomonidan 11-marta yig'ilish

Fuqarolik jamiyati institutlari jamiyat hayotida faol

o'tkazilib, davlat ro'yxatidan o'tgan NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari uchun qilingan "Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili" Davlat dasturi ijrosini taminlashda ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish" nomli tanlov e'lon qilindi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini hamda OAVni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun bitta davlat granti loyihasi uchun ajratiladigan pul mablag'lari miqdori 50 (elilik) million so'mgacha etib belgilandi.

Tanlovga kelib tushgan 16 ta loyihadan 8 tasini moliyalashtirish (ajratilgan mablag' 400 million so'm) bo'yicha xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi qarori qabul qilinib, tanlov g'oliblarining hisob raqamlariga o'tkazib berildi.

"Inson huquqi va erkinliklariga amal qilish har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash, huquq va manfaatlarini ta'min-



lash, ma'naviy-axloqiy bilimlarni oshirish, oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlari faolligini oshirish" nomli ikkinchi tanlovga kelib

tushgan 18 ta loyihadan 4 tasini moliyalashtirish (ajratilgan mablag' 240 million so'm)ga qaror qilindi.

Umuman, yilning 9 oyi davomida 15 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha davlat grantining 3 ta tanlovi o'tkazildi. Unda 43 ta NNT, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'z loyihalari bilan ishtirok etdi. Shundan 12 ta ijtimoiy ahamiyatli dastur va loyihalar umumiy qiymati 880 million so'mni tashkil etgan bo'lib, ushbu loyihalar jamoat komissiyasining tegishli qarorlari bilan qo'llab-quvvatlandi.

Loyihalarni amalga oshirish doirasida NNT, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari joylardagi mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda "Odam savdosiga va korrupsiyaga qarshi

Konstitutsiya kuni oldidan

kurashish faoliyatini tashkil etishda NNTlar faolligini oshirish" bo'yicha ko'rgazmali axborot va o'quv materiallari tayyorlandi. Fuqarolar yig'inlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir dasturlarni amalga oshirish, turli yuqumli kasalliklar profilaktikasi masalalarida keng tushuntirish ishlari olib borildi.

Bundan tashqari, jamoat komissiyasining qarori bilan belgilangan tartibda ichki audit o'tkazilib, xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondining yillik faoliyati OAVda yoritib borildi. Komissiya yig'ilishlarida jamoat fondining hisobotlari doimiy muhokama qilib borildi. Jumladan, hisobot davrida xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasining 11 ta yig'ilishi o'tkazildi. Ularda "Uchinchi sektor" subyektlarining faoliyatiga doir jamiyatda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish bilan bog'liq 48 dan ortiq masalalar ko'rib chiqildi.

Shuningdek, turli yo'nalishlarda 32 marotaba turli targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, ularda 4800 kishi ishtiroki ta'minlandi. Davlat granti loyihalarni amalga oshirish jarayonida bosma va elektron OAVda 121 marta yoritildi.

Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi va jamoat fondining faoliyati ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi.

Doston MALIKOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondi direktori.



«O'ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASIDA

Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish maqsadida:

- Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish.

- Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash.

- 30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.

- «Top-500»ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida «ikki diplomli tizim»ni joriy etish.

- 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli «Top-1000» oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.

- Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish.

- 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish.

- Qo'shimcha 120 ming o'rinli o'quv binolari hamda 150 ming o'rinli talabalar turarjoylarini qurish.

- Kutubxonalarini kamida 1 millionta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish.

- Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratish.

- Fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

- Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so'm ajratish.

- Amaliy tadqiqotlarga Davlat budgetidan 4 trillion so'm mablag' yo'naltirish belgilangan.

QISHDA MAKTABLAR anday isitiladi?

O'tgan qish mavsumidagi anomal sovuq viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tizimidagi muassasalarning issiqlik tizimiga katta talafot yetkazdi. Joriy yilda bunday holatlarning oldini olish maqsadida Prezidentimiz taklifi bilan kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha obyektlarini isitish xususiy tadbirkorlar zimmasiga yuklatildi. Viloyatimizdagi Ishtixon, Samarqand va Narpat tumanlarida faoliyat yuritayotgan maktab va maktabgacha ta'lim obyektlari va tibbiyot muassasalarida sinov tariqasida tadbirkorlar ish boshlashdi. Jumladan, Ishtixon tumanidagi 95 ta umumta'lim, 2 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 32 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tabiiy gaz tarmoqlaridan uzilib, muqobil isitish manbalari - ko'mir va o'tinga o'tkazildi.



Tuman hokimligi bilan kelishgan holda "Makro Fayz Xurshid" MCHJ, "Murodobod Seti" MCHJ, "Mitan Univermagi" MCHJ, "Zoyir Mansur" hamda "Saxovatli Temur" xususiy korxonalarini rahbarlari bilan uchrashib, barcha soha obyektlari taqsimlandi.

Ijtimoiy soha obyektlarini isitishda endi davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida tadbirkorlar yordamidan foydalanamiz, - deydi tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mutaxassisi Maqsud Ahmedov. - Shu sohada ishlashni xohlagan bir qancha tadbirkorlarning imkoniyatlari o'rganib chiqilib, eng ma'qul 5 ta xususiy tadbirkor tanlandi. Hozirda barcha obyektlarimizga ko'mirxonalar qurilib, ko'mir va o'tin zaxirasi yaratildi. Biroq isitish tarmoqlarini sinovdan o'tkazishda ancha qiyinchiliklarga duch keldik. 30 dan ortiq maktab, va 20 ga yaqin bog'chada tizim talabga javob bermadi.

O'zbekiston mahallasida joylashgan 690 o'rinli 8-umumta'lim maktabida, 1122 nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi.

Shu paytgacha tabiiy gaz bilan isitiladigan maktabimiz endi ko'mir bilan isitiladigan bo'ldi, - deydi muassasa direktori Dilnoza Elmurodova. - "Makro Fayz Xurshid" MCHJ maktabimizga ko'mirxonaga qurib, isitish tizimlarini qayta montaj qilib, mavsumga tayyorladi. Ayni vaqtda 9 ta yangi pech o'rnatilib, 52 tonna ko'mir keltirildi. Pechlarni sinovdan o'tkazganimizda barcha xonalar va sport zalimiz yaxshi isidi. Hozircha muammo yo'q. Endi oldimizda qish, sovuq kunlar hali oldinda. Ko'ramiz, buyug'i qanday bo'ladi?

Tadbirkor G'.Ko'bayev rahbarlik qilayotgan "Makro Fayz Xurshid" MCHJ tuman bo'yicha 24 ta ijtimoiy soha obyektlarini isitishni o'z zimmasiga olgan. Mavsum uchun 417 tonna ko'mir olinib, barcha muassasalarga tarqatildi. Qolganlarini esa omborxonalarda saqlamoqda.

Tumandagi 8-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida Qoraqo'lyi mahallasining 90 nafar jaji farzandlari tarbiyalanmoqda. Ko'mirxonada 10 tonna ko'mir

saqlanmoqda. Biroq hali bino isitilgani yo'q.

Ko'mir bo'lgani bilan olov yoqilmasa, bekor-da, - deydi tarbiyachi Mohira Normurodova. - Ertalablari xonalar ancha sovuq bo'ladi. Ota-onalar bog'chamizning sovuqligidan shikoyat qilishmoqda. Chunki pech va isitish tizimlari nosoz. Sinovdan o'tkazilganida isitish batareyalaridan suv oqib ketdi. Tadbirkorning ishchilari kelib sozlandi, yangidan montaj qilishdi. Kuni kecha ishlatishga urindik, biroq yana xonalaridagi tarmoqlardan suv oqib ketyapti.

Darhaqiqat, isitish tizimlarida bir qator kamchiliklar uchray turadi, - deydi Maqsud Ahmedov. - Bir sinovda barcha nosozliklarni aniqlash qiyin. Asta-sekin ularni aniqlab, bartaraf etib boraveramiz. Kecha 9-DMTTda ham xuddi shunday nosozlik aniqlandi. Sinovdan yaxshi o'tgan edi. Ishlatib ko'rishganida yana issiq suv oqib ketibdi. Zudlik bilan tadbirkorni chaqirdik, ishchilari bilan kelib, nosozlikni bartaraf etib ketishdi.

Maktabimizda xalqobodliklarning 470 nafar farzandi tashil oladi, - deydi tumandagi 1-umumta'lim maktabi xo'jalik ishlari mudiri R.Muhammadiyev. - Shu paytgacha tabiiy gazga ulanganligimiz uchun isitish mavsumida muammo bo'lmagan. Endi bu ishni "Murodobod Seti" MCHJ o'z zimmasiga olgan. Tadbirkor T.Tursunov tomonidan 16 tonna ko'mir va ko'mir mahsulotlari keltirilib, omborxonaga joylashtirildi. Barcha qozonxonalar va tizimni sinovdan o'tkazib oldik.



Maktab va maktabgacha ta'lim obyektlari tabiiy gaz tarmog'idan uzilgach, tumandagi 10 mingdan ortiq aholi xonadonlarida gaz bosimi me'yoriga kelgani aytilmoqda. Biroq ta'lim va tibbiyot muassasalarini isitishda sinov tariqasida bo'lsa-da, davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlar bilan hamkorlik qilinayotgani natijasi tez orada ma'lum bo'ladi. Ayni paytdagi holat, mavsumga hozirlik esa afsuski, ko'ngildagidek emas.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Savdo-sanoat palatasi joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlarga har tomonlama ko'maklashish maqsadida tashkil etilgandi. Biroq tadbirkorlarning palataga har yili bir marta majburiy a'zolik badali to'lashi shartligi tufayli tadbirkorlikka qiziquvchilar ham, faoliyatidagi qiyinchilikka uchrayotgan ishbilarmonlar ham bu yerga kelishga oshiqmasdi. Buning ustiga, palataning hududiy boshqarmalari viloyat markazlarida joylashgan, tumanlarda esa faqat tadbirkorlikka ko'maklashish markazlari bor. Ammo ularda imkoniyatlar yetarli emas, viloyat markaziga kelish, maslahat olish uchun tadbirkor kun bo'yi vaqt yo'qotardi. Endi bu kabi muammolarga yechim topildi.

PALATANING TUMAN BO'LIMLARI OCHILDI

BU TADBIRKORLIKKA QANCHALIK HISSA QO'SHADI?

Pezidentimizning joriy yil 23-yanvardagi "Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan 2023-yil fevraldan mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari palataga a'zolik va kirish badallaridan ozod qilindi. Ularga qonunda nazarda tutilgan a'zolik bilan bog'liq palata xizmatlaridan to'laqonli foydalanish huquqi berildi. Savdo-sanoat palatasining tuman bo'limlari tashkil etildi. Bo'limlardagi shtatlar hududlardagi tadbirkorlik subyektlaridan kelib chiqib, 4 nafardan 6 nafargacha qilib belgilandi. Oylik maoshlar ham qayta ko'rib chiqildi va budgetdan tashqari fondan ajratiladigan bo'ldi.

Tumanimiz misolida oladigan bo'lsam, palataning tuman bo'limida joriy yilning uchinchi chorak yakuni bilan fermer va dehqon xo'jaliklari 2641 tani, kichik biznes subyektlari 2924 tani, yakka tartibdagi tadbirkorlar 4695 nafarni tashkil etmoqda. Hozirda palata bepul a'zoligiga 1679 nafar tadbirkor qamrab olindi. Yil boshidan buyon 61 turdagi xizmatlar ko'rsatilmoqda. 22 nafar tadbirkor manfaatini ko'zlab sudga 80 ta da'vo ariza kiritildi, 37 ta ish bo'yicha arizalar ijobiy hal etildi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha doimiy so'rovnomalari o'tkazishni yo'lga qo'yib, 9 oyda 220 ga yaqin subyektlarning fikrlarini o'rgandik. Muammo va takliflari bor 128 nafar tadbirkor har hafta o'tkaziladigan tuman hokimining "Tadbirkorlar qabuli"ga taklif etilib, ularning muammolari yechimiga ko'maklashildi.

Jumladan, "Mo'jizali olam" nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti

rahbari Dilfuza O'tasheva MIB tomonidan noto'g'ri undirilgan mablag' qaytarilmayotganligidan shikoyat qildi. Muammo o'rganilib, qisqa muddatda hal etildi.

Shuningdek, Prezidentimizning tegishli qarorlari asosida yoshlar, xotin-qizlar hamda aholining band bo'lmagan qismini tadbirkorlikka jalb etish yuzasidan 385 nafar xotin-qiz tadbirkorlik asoslariga o'qitildi.

Tadbirkor boy bo'lsa, mamalakat boy bo'ladi. Tadbirkor boy bo'lishi uchun esa barcha eshiklar ochilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, "20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturi joriy etildi. Ushbu dastur esa palataning tuman bo'limlari tomonidan shakllantirilmoqda. Bugungi kunga qadar tumandan 31 nafar tadbirkor yangi va mavjud loyihalarini kengaytirish yuzasidan dasturda ishtirok etish uchun arizalar berdi va ularning sertifikatlari shakllandi. Tadbirkorlarimiz asosan soliqdan yengillik, imtiyozli bank krediti hamda bojxonadagi "yashil yo'lak"dan foydalanishni maqsad qilishgan. Bunda tadbirkordan talab qilinadigan 51 nafardan kam bo'lmagan hamda shulardan 20 foizi ijtimoiy reestrda turuvchi aholi bo'lishi lozim. Hisob-kitoblar va ishbilarmonlar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tahlil qilsak, tadbirkor uchun sof foydani oshirish aholining turmushi farovonligiga xizmat qiladi.

Ilimjon BOBOYEV,
Savdo-sanoat palatasi Ishtixon tumani bo'limi boshlig'i.

Aziz samarqandliklar!

Tabiat boyliklari orasida suv alohida o'rin tutadi. Chunki barcha tirik jonzorlar hayotining asosiy manbai suvdur. Suvsiz hayot bo'lishi mumkin emas.

Bugun dunyo miqyosida suvdan noto'g'ri foydalanish, ekologik jihatdan zararli texnologiyalarni qo'llash oqibatida sayyoramizda iqlim o'zgarib, bioxilma-xillik yo'qolib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidagi 2 milliarddan ziyod aholi suv tanqisligini sezmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, qariyb 1,5 milliard aholi toza ichimlik suvidan foydalana olmaydi, 2,3 milliard aholi esa sanitar talabga javob bermaydigan suvni iste'mol qilishga majbur bo'lmoqda.

Global iqlim o'zgarishlari tufayli yuzaga kelayotgan suv ta'minoti bilan bog'liq muammolar Markaziy Osiyoni, xususan, O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Shuning uchun suvdan tejamkorlik bilan foydalanish madaniyatini, eng avvalo, oilada, mahallalarda, ta'lim muassasalarida yoshlar orasida shakllantirmas ekanimiz, bu muammo chuqurlashtirib boraveradi. Bu borada biz, nuroniyalar, Samarqand viloyati faollari barcha samarqandliklarni bebaho ne'mat – suvni asrash, undan tejab-tergab foydalanishga chaqiramiz.

Muhtaram nuroniyalar!

Sizlarning hayotiy tajribangiz, duo va tilaklaringiz xalqimiz uchun hamisha katta tayanch va suyanch bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, bugun suvdan tejamkorlik bilan foydalanish borasida tushuntirish, targ'ibot ishlari orqali har bir mahalla, har bir oilaga kirib borishimiz talab etiladi.

Suv – inson hayoti, salomatligi bilan uzviy bog'liq ekanini, shuning uchun xalqimiz suvni azal-azaldan muqaddas hisoblab, suvni asrab-avaylashganini o'z hayotimiz misolida yoshlarga tushuntirishda Sizdan faollik tashabbusini kutamiz. Sizlarning shaxsiy

**O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini
qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi
Samarqand viloyati bo'limining viloyat ahliga****M U R O J A A T I**

namunangiz, pandu nasihat, tavsiya va ko'rsatmalaringiz barchamiz uchun muhim.

Qadri mahalla faollari, ko'chaboshilar!

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida millionlab odamlar toza ichimlik suviga tashna, bir chelak obi hayot uchun janjal-mojarolar bo'layotgan bir paytda mahallamizning qaysi bir joyida toza ichimlik suvini jo'mraklardan oqizib qo'yaymiz. Yozning issiq kunlarida hovillarimiz va ko'chalarimizga suv sepyapimiz, toza ichimlik suvi bilan ekinlarimizni sug'oryapimiz, mashinamizni yuyapimiz. Ro'zg'or ishlari kundaik ehtiyojlar uchun ham odamlar qanchadan-qancha suvlarni ortiqcha isrof qilmoqda. Afsuski, suvni isrof qilayotgan, bu bebaho ne'matga beparvo munosabatda bo'layotgan kishilar bor.

Ota-bobolarimiz azaldan suvni muqaddas bilib, undan oqilona foydalanib, mudom "Suvga sumpur, suvga tupurma", deb farzandlariga uqtirib kelgan. Milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda siz ham bu an'anani faol davom ettiring. Farzandlaringiz, nevaralaringizga suvning qadri, uning har tomchisini uvol qilmaslik, ifloslantirmaslik uchun o'z maslahatlaringizni bering. Suvdan tejab foydalanishlari uchun ibrat bo'ling.

**Hurmatli dehqon va fermerlar,
tomorqa yer egalari!**

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan respublika-miz suv xo'jaligi sohasini kompleks rivojlantirish,

mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, jumladan, raqamli va suvni tejavchi sug'orish texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda.

Ko'rib turibmiz, suvga mehr berish, uning har bir tomchisidan unumli foydalanishda sizlarning tajribangiz katta. Bugun ana shu tajribani ishga soladigan, uni boshqalarga o'rgatadigan palla.

Sizlardan ushbu xayrli ishlarni sifatli davom ettirishda, sug'oriladigan maydonlarda obi-hayotni tejavshda, buning uchun tejamkor texnologiyalarni keng qo'llashda faollikni kutamiz.

Mo'tabar onaxonlar, aziz opa-singillar!

Xonadonimiz, mahallamiz fayzu tarovati siz bilan go'zal!

Onani qanday e'zozlasak, suvni ham shunday qadrlashni farzandlarimiz ongu shuuriga chuqur singdiraylik! Ularga suvni isrof qilmaslikni o'rgataylik. Bir dona nosoz jo'mrakdan tomchilayotgan yoki beparvo oqizib qo'yilgan suv bir soatda qancha bo'lishini tushuntirib beraylik!

Ortiqcha isrof qilingan har tomchi suvning uvol ekanligini oqila onalarimiz bizning ongimizga singdirib yashashgan. Siz ham farzandlarimiz oniga bu tushunchalarni singdirish, ularning oilada, maktabda va hatto bog'cha yoshidan boshlab

suvdan tejamli foydalanish madaniyatini o'rganishlari, shunga odatlanishlari uchun maslahatlaringizni ayamang.

Toki, zurriyatimiz ota-bobolarimiz singari suvning har zarrasi qadriga yetadigan, asraydigan bo'lsin! Shundaygina tabiatni asl holidek saqlab, uni kelajak avlodga bezavol yetkazishga erishamiz.

Aziz yoshlar!

Sizlar Yangi O'zbekistonning bunyodkor kuchisiz! Xalqimiz ko'zlayotgan yuksak marralarga erishishda aql-zakovatingiz, g'ayrat-shijoatingiz, ona Vatanga bo'lgan sadoqatingiz beqiyosdir.

Prezidentimiz shu yil 15-sentabr kuni Tojikistonda bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish bo'yicha maxsus dasturni qabul qilish, bu borada yoshlar tashabbuslari va startaplarini qo'llab-quvvatlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish kerakligini ilgari surdilar. Buni yodda tuting va Prezidentimiz tashabbusiga labbay deya javob berib, suvni asrashga mehr bering! Bu borada tengdoshlaringiz orasida turli foydali tadbirlar tashkil etishda tashabbus ko'rsating!

Aziz samarqandliklar!

Suvni asrash va uni toza saqlashni majburiyat emas, qadriyat sifatida qabul qilaylik!

Har birimiz kelajak avlod oldidagi burchimizni chuqur his qilgan holda suvga bo'lgan munosabatimizni tubdan o'zgartiraylik, uning har tomchisini qadrlaylik!

Xalqimizda toma-toma ko'l bo'lur, degan purhikmat naql bor. Har birimiz bir tomchimi, bir litr yoki o'n litr suvni tejat ekanimiz, bu mamlakatimiz iqtisodiga, xalqimiz farovonligi, el-yurtimiz ravnaqiga, farzandlarimizning kelgusi baxtli-saodatli hayotiga qo'shayotgan eng xayrli ulushimiz bo'ladi.

**Bank
"Korrupsiyasiz
soha" bo'lmoqchi**

"O'zmilliybank" AJ viloyat boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi.

Aksilkorrupsiya oyligi doirasida tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimligi korrupsiyaga qarshi nazorat qilish shu'basini, viloyat prokuraturasi, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar mas'ul xodimlari ishtirok etib, viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatda bu illatga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritildi.

– 2021-yilda bankimizda "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlangan va unda belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida bajarib kelinmoqda, – deydi "O'zmilliybank" AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasi xavfsizlik rejimi va axborot himoyalash bo'limining kompleks nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi Sherati Ziyatov. – Bunda avvalo, xodimlarda korrupsiyaga, uning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya sharoit yaratadigan omillarni bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rilmoqda. Barcha xodimlar, jumladan, yangi ishga qabul qilinayotganlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha avtomatlashtirilgan SAP (Success Factors Learning Management System) tizimi orqali o'qitilib, malaka oshiriyapti. Har haftalik ma'rifat soatlarida ham xodimlarga bu borada zarur tushuncha beriladi. Bir qator bank operatsiyalarini elektron tizim orqali, inson omili aralashmagan holda amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, mijozlar uchun ishonch telefonlari tashkil etilgan va ular xizmat sifati, xodimlarning muomala munosabati yuzasidan murojaat qilishlari mumkin.

Tadbir davomida bank mas'ullari va huquq-tartibot idoralari vakillari xodimlarni qiziqtirgan savollarga ham batafsil javob berdilar.

O'zbekiston va Xitoyning madaniy, tarixiy merosiga bag'ishlangan ushbu ko'rgazmada Samarqand arxeologiya instituti, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi va Xanchjoungi Xitoy milliy ipak muzeyiga tegishli 86 ta buyum namoyish etilayapti.

– Joriy yil Xitoy milliy ipak muzeyida XIX Osiyo o'yinlari munosabati bilan "Rang-barang Osiyo: Osiyo liboslari ko'rgazmasi" bo'lib o'tgan edi, – deydi Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi direktori Xo'jaqul Muhammadiyev. – Unda O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mahalliy jamoatchilikka mamlakatimiz muzeylarida

"Ipak va Ipak yo'li:

Xanchjoungan Samarqandgacha"

ko'rgazmasi ish boshladi



Samarqandda o'tkazilgan O'zbekiston-Turkiya II ta'lim forumida Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori Chidem Turkiylmaz Turkiyaning Istanbul texnika universiteti, EGE universiteti, USAK universiteti, Artvin Choruh universiteti, Burdur Mehmet Akif Ersoy universiteti, Hachettepe universiteti, Trabzon universiteti va Chanakkale Onsekiz Mart universitetlarining rektorlari bilan o'zaro anglashuv memorandumlarini imzoladi.

Rektorlar kelishib oldi

– Bunday almashinuv dasturlarining tashkil etilishi olimlar va talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi, – dedi Chidem Turkiylmaz. – Akademik ma'lumotlar va materiallarni almashish har ikki tomon uchun manfaatli va bunday almashinuv dasturlarini tashkil etish orqali xalqaro talabalar soni ortishiga ishonch bildiraman. Shuningdek, hamkorlik aloqalari ikkala ta'lim muassasasining tadqiqot va o'quv jarayoni yaxshilanishiga hissa qo'shadi.

Tadbirda Samarqand agroi-

novatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori Shavkat Hasanov Turkiyaning Siirt universiteti, Isparta amaliy bilimlar universiteti hamda Artvin Choruh universiteti bilan anglashuv memorandumini imzoladi. Tomonlar hamkorlikda istiqbolli amaliy ishlar boshlashga kelishib oldi. Kelajakda Turkiya oliy ta'lim muassasalari bilan institut o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatilishi kutilmoqda.

Umuman, forum davomida ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 70 ga yaqin hujjat imzolandi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Daromad solig'i bo'yicha imtiyoz

olish endi osonlashdi

Hukumat qarori (601-son, 15.11.2023 y.) bilan Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga imtiyoz qo'llash bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlandi.

Reglamentga ko'ra, ariza beruvchi imtiyozni olish uchun o'z xohishiga ko'ra YaIDXP (my.gov.uz) orqali ro'yxatdan o'tadi. So'rovnomaga to'ldirilib, unga tegishli zarur hujjatlar ilova qilinadi (yuqorida keltirilgan). Uni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

Yana bir muhim tomoni, so'rovnomani ko'rib chiqqanlik uchun to'lov undirilmaydi.

Soliq organlari so'rovnomaga tushgan kundan boshlab 5 ish kunida ariza beruvchiga daromad solig'i bo'yicha imtiyoz qo'llanilgan yoki qo'llanilmaganligi haqida QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan xabar nomani YaIDXP orqali yuboradi.

Daromad solig'i bo'yicha imtiyoz qo'llanilganligi to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 15 kun ichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi to'lovlarni amalga oshiradi.

Rustam NORQULOV,
Samarqand shahar adliya bo'limi DXM bosh mutaxassisi.



REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Raximova Shafaotga (2018-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ismailov Boris Ashrapovichga (2013-yil 5-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Yusupov Akram Kurbanovichga (2023-yil 12-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Zelinskiy Anatoliy Vasilevichga (2023-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

Tadjiyeva Gulnora Zoidovna va Kadirov Azamat Safarovichlar o'rtasida Samarqand shahri Go'ro'g'li ko'chasi, 221-uy uchun tuzilgan, Samarqand shahrida

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasidan 2023-yil 16-yanvarda tasdiqlanib, Ksh 067212 SA blankada tuzilgan, 202301391000123 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.


O'zbekiston metallurgiya va mashinasozlik sanoati tarmoqlari xodimlari kasaba uyushmasi Samarqand (Navoiy, Jizzax) viloyat bo'linma kengashi "Samarqand avtomobil zavodi" QK MCHJ boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi Shuhrat Hamdamovga onasi **Habiba HAMDAMOVA**ning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

KO'NGILNING ZILOL CHASHMI

Mashrab Boboyev bilan qachon tanishganimni eslay olmayman. Har holda she'rlari kiritilgan kitoblar orqali. Ular yoqimli bo'lgani uchun muallifning nomi bolalik shuurimda saqlanib qolgan. Keyinchalik talabalik davridagi qiziquvchanlik, qolaversa, "tirik" shoirlarni o'z ko'zimiz bilan ko'rish maqsadida Yozuvchilar uyushmasining yig'inlariga ko'p kelardik. Mashrab Boboyev, albatta, har ko'rganimizda Mirtemir domlaga suyanch bo'lib, uni mushoira zaliga yetaklayotgan, yo bo'lmasa, "Sharq yulduzi" jurnali yo'laklarida kim bilandir suhbatlashayotgan, goh esa muk tushib, jurnal uchun material tayyorlayotgan bo'lardi. Nihoyat u kishi bilan birinchi marta oilamiz qadrdoni – Otayor akening xonadonida salomlashish nasib etdi. Mashrab aka har doim yosh ijodkorlarning ardog'ida bo'lgan. Keyinchalik, oradan yillar o'tib, bir dargohda – O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zAda birga xizmat qildik.

Mashrab aka tarjima tahririyatining bosh muharriri edi. Agentlik mam-lakatning yagona axborot mahkamasi bo'lgani uchun ham bu dargohda hech qachon ish kam bo'lmagan. Bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Qachon qaramang, Mashrab aka albatta, kompyuter qarshisida ilhom bilan ishlayotgan bo'lardi. Goh-goh huzuriga rejissyor Mahkam Muhamedov, tarjimon Nizom Komilov kelib qolar, o'shandagina suhbat cho'zilib ketardi. O'shanday kunlarning birida televidorda Mashrab Boboyevning "Ko'ngil ko'chalari" teleseriali namoyish etila boshladi. Kirib, u kishini tabriklagan bo'ldim. Gap orasida "Bunday katta qamrovli ijodiy ishlarga qachon vaqt topasiz-a, Mashrab aka", deganimni bilmay qolibman. Chunki ijodkorga qulay vaqt topsam, o'yab yurgan asarlarimni yozarman, deysib begona xislat. Shu o'rinda anchayin bee'tiborligimni sezib, xijolat bo'ldim. Buning ustiga men ham "Ko'ngil ovi" degan bir narsalarni qoralab yuribman, deb ikkinchi marta qovun tushirdim. Yonimda "sen Kimu Mashrab Boboyev kim?" deyidigan odam yo'q. O'n-o'n besh varaqlik tugal hikoya yozganman-mi, yo'qmi, "bir narsalarni qoralab yuribman", deganimdan uyilib ketdim. Ko'ngilimdan o'tganini sezgan Mashrab aka ayadilar chog'i, "Yozavering, faqat ko'ngilging tusaganida yozing", "Ko'ngil ovi"ni esa yozib bo'lganigizdan keyin bir ko'rsatarsiz", dedilar xotirjam. Bilishimcha, o'sha paytda "Ko'ngil ko'chalari" peshma-pesh suratga olinayotgandi. Shu bois serial rejissyori asarning davomini qabul qilib olish, maslahatlashish uchun bu

yerga tez-tez kelib turar ekan. Shundan so'ng deyarli har kuni "Ko'ngil ko'chalari"da sayr etadigan bo'ldik. Bir kuni Mashrab aka xonalari-ga taklif qilib qoldi. Kayfiyati chog', bir gapirib, o'n kuladi. "Men "Ko'ngil ko'cha-lari"ga qalam haqi oldim". Tabiiyki, bunday paytda, "Qancha?" "Cho'g'i balandmi?" deb so'rash odobdan emas. "Barakasini bersin!", dedim. "Men onajonim, Vatanimga sakson yetti ming so'm soliq to'lab, davlatim rivojiga o'z hissamni qo'shganimdan mam-nunman, bu yog'i sutday halol", dedilar seyfni ochib. Haqiqatdan ham anchagina pul bor ekan. Xavotirga tushdim. Axir Mashrab aka-ni qo'li ochiqilgini bilardim-da. Hozir eshik-dan pulning hidini olgan biror uchar kelib, biror bahonani aytib, obi-diyora qilsa, u kishi borini qo'shqo'llab berib yuborishi mumkin edi-da. Shu sababli ularni uyiga, "egasi"ga – yangaga yetkazish kerak, degan maqsadda gapni aylantira boshladim. "Xavotir olmang, ukajon, oldimizda katta ishlar turibdi. Yana bir-ikki reja bor. Ukalaringizni uylantirish, uyli-joyli qilish, deganday...". Demak, shunday xayrli ishlar boshlangan ekan, yanganing ham xabarlari bor, deb xotirjam bo'ldim.



yuziday bir dam alvonlandi, so'ngra bag'ri hayajonga to'lib, ularning boshidan zarlarini sochib yubordi, baxtiyor onlarga sherk bo'ldi. Mezbon muxlislar tarqalgisi kelmas, ko'ngillar erib, suv bo'lib oqardi. Davrada ishtirok etgan nar-payliklar hozirgacha o'sha uchrashuvni maroq bilan eslashadi.

Ish ko'p, buning ustiga, ijodi ko'lami ortib boryapti. Hech qachon o'zini o'ylamaydigan, avaylamaydigan Mashrab Boboyevni ayash, qolaversa, sermahsul xizmat qilishi uchun O'zAda sharoit yaratish maqsadida navbatchi xizmat mashinasi ajratildi. Tasodifan Otayor akening Mirtemir domla sharafiga, u kishining ruxsati bilan ismi qo'yilgan o'g'li Mashrab akaga shofyorlik qiladigan bo'ldi. Isming nima, ukajon, deb so'radi u. Shofyorning o'rni-ga men javob berdim. Uni tanishtirdim. "Ey, shundaymi? Otang juda yaxshi odam edi. Begona emas ekansan, bo'lmasa, bunday

qilamiz, bilasan, Mirtemir domla ulug' inson! Men sizing ismingizni aytib chaqirolmayman, ukajon, xafa bo'lmang, shuning uchun bugundan boshlab, men uchun "domla" bo'laqoling". "Qani, domla, o'zlaridan bo'lsin", deb "domla"ga mashina rulini ko'rsatdilar. Ular bir necha yil birga ishlashdi. Ammo biror marta shofyorining ismini aytib chaqiradilar. Mashrab Boboyevning ustozlarning ismiga-da, bo'lgan hurmati shu qadar ulug' edi.

U kishi tengdosh ijodkorlarning hammasini ham shunday qadrlar, birortasini ikkinchisidan kam ko'rmasdi. Masalan, Abdulla Oripovning yangi asari haqida gap ochilsa, "Abdulla Oripov bizning baxtimiz, iftixorimiz", deb alqardilar. Erkin Vohidov nomi tilga ko'chganida "allomamiz", deb ulug'lardi. Shuning uchun bo'lsa kerak kimki, qarshisidan chiqsa, "Ey, Mashrab aka!", deb quchoq ochar, bag'ridan qo'yvorgisi kelmasdi. Farzandlarini ham sizlab gapiradigan bu insonidan ibrat oladigan xislatlar ko'p edi.

Bir kuni Jizzax tomonga, hamkasblarimizdan birining to'yiga boradigan bo'ldik. Qaytayotganimizda Mashrab aka, "O'ktamjon, agar malol kelmasa, eshonboboni ham bir ko'rib o'taylik", deb qoldi. Men bajonu dil rozi bo'ldim. "Qayerga?" so'radim Toshkentga kirib kelgach. "To'g'ri uyingizga haydayvering", dedilar xotirjam. Yetib keldik. "Bir o'zim kirmay, siz ham hamroh bo'ling", dedilar samimiy. Biz Mashrab akening o'g'li Anvarjon bilan qo'shni turamiz. Ustozning tavozе bilan ichkariga taklif qilishlariga qaraganda, bu yerga muysafiroq mehmon kelgan bo'lsa, suhbatlashib o'tiramiz, deyaptilar, degan o'y bilan u kishining izidan o'zinni ichkariga oldim. Mashrab aka istiqboliga yugurib chiqqan nevarasi Alpomishni "Mening eshonbobom" deya bag'riga bosib, to'yib-to'yib hidladilar. Bu shunchaki bobo bilan nevara munosabati emas edi. Bu katta avlodning kichik avlodga hurmati va shukronasi edi.

Mashrab Boboyev bilan ancha yillar birga xizmat qilish nasib etganiga, u kishidan odamgarchilik, qadr-qimmat nima ekanligini biroz bo'lsa-da, anglaganimga shukr qilaman. Qon-qarindoshiga bo'lib ketgandik. Mashrab Boboyev ko'ngil kishisi edi. Biror marta, biror masalada birovga istehzo qilganini yoki ranjiganini ko'rmadim. U bosiq, mulohazali, xokisor odam edi. Hamisha "Mening Vatanim", "Mening bayrog'im", "Mening ustozim", "Mening shoirim", deb g'ururlanishni yaxshi ko'rardi. Har bir zamondoshining muvaffaqiyatida u millatning yuksalishini ko'radi va qadrlardi. Mashrab Boboyevning fazilatlarini, ijod mahsuli, ayniqsa, dramatik asarlari yetarlicha talqin etilmagan, ochilmagan qo'riqligicha turibdi. Uning she'rlari hech eskirmaydigan tuyg'ularga yo'g'rilgan. His-hayajoni, mazmun mohiyati ko'ngilning eng zilol chashmidan olingani uchun ham hamisha jilolanib turadi.

O'ktam MIRZAYOR.

SAMARQAND MUZEYINING ILK RAHBARI KIMLIGINI BILASIZMI?

Samarqandda dastlabki muzey XIX asrning ikkinchi choragida hududdagi madaniy boyliklarni muhofaza qilish, ularning xorijga chiqib ketishining oldini olish maqsadida tashkil etilgan. Bunda Hafiz Samarqandiy va Mirzo Abdulla Buxoriylarning kolleksiyalari asos bo'lgan edi. 1874-yilda Zarafshon okrugi mahkamasida tashkil etilgan no-rasmiy muzey oradan bir muddat o'tib, 1883-yilda chor Rossiyasi ma'murlari talabi bilan yopiladi.

sa'y-harakati bilan 1901-yilda ko'tarilgan ushbu muammo 1911-yilda o'z yechimini topadi. Muzey uchun maxsus bino (hozirgi Abu Rayhon Beruniy nomidagi axborot-resurs markazi) qurib bitkaziladi va muzey yangi binoga ko'chiriladi.

XX asr boshlarida V.Vyatkin Samarqand viloyati statistika komiteti va Samarqand muzeyida etnografiya hamda arxeologiya sohasida yetakchi olim hisoblangan. Arxiv manbalariga ko'ra, Samarqand muzeyiga V.Andreyev rahbarlik qilgan vaqtda V.Vyatkin statistika komiteti a'zosi sifatida Samarqand muzeyining ilmiy-ma'rifiy ishlarida qatnashib, qadimgi Sharq va etnografiya, Turkiston xalqlari tangalari va medallari bo'limlari katalogini tuzish ishlariga mas'ul etib tayinlangan. Samarqand muzeyi dastlab Samarqand viloyati statistika komiteti

vaqtda mahalliy boshqaruv tomonidan ilmiy loyihalar qo'llab-quvvatlanmagan, markazdan kelgan turli ilmiy tashkilotlar o'z mablag'lariga tashkil etgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida qo'lga kiritilgan madaniy boyliklarni Rossiya imperiyasining turli muzeylariga olib ketishar edi. 1904-yil yozida Afrosiyob xarobalarida olib borilgan qazish ishlari natijasida loydan, shishadan, temirdan yasalgan buyumlar va koshinlar topiladi. Topilmalarning yarmi imperator arxeologiya komissiyasi talabi bilan Ermitajga olib ketilgan. Qolgan yarmi esa V.Vyatkinning harakatlari tufayli Samarqand muzeyida qoldiriladi. V.Vyatkin 1908-1909-yillarda doimiy yo'ldoshi samarqandlik olim Abu Said Maxsum ko'magida Ulug'bek rasadxonasining o'rni-ni aniqladi. Rus arxeologiya jamiyati 1910-yilda Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini topganligi uchun uni akademik V.Rozen nomidagi oltin medal bilan, hamrohi Abu Said Maxsumni esa Rus komiteti 100 rubl bilan mukofotlaydi.

V.Vyatkin 1923-1930-yillarda ikkinchi marta Samarqand muzeyiga rahbarlik qilgan paytlarida ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyati doirasidan chiqib, respublikaga yoyiladi. Jumladan, 1927-1929-yillarda uning rahbarligida Termiz va Xorazmga ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Ekspeditsiyalar natijasida ko'plab noyob madaniy boyliklar yig'iladi. Endilikda Samarqand muzeyida yig'ilgan kolleksiyalar butun respublika hududiga daxldor edi. Shu tufayli muzey "viloyat muzeyi" darajasidan "respublika muzeyi" darajasiga ko'tariladi. Samarqand muzeyi respublika muzeyi maqomini olib, "O'zbekiston markaziy davlat muzeyi" deb atala boshlaydi.

V.Vyatkinning hayotligida yig'ilgan, turli davrlarga oid mis va kumush tangalar, turli sopol idishlar bo'laklari va gipsdan ishlangan buyumlardan iborat 559 dona arxeologik ashyo 1933-yilda Samarqand muzeyiga topshiriladi, kolleksiyaning bir qismi



muzeyi sifatida ish boshlagan. Komitet a'zolari bir vaqtning o'zida muzey xodimlari sifatida ham faoliyat olib borishgan.

Samarqand yodgorliklarini asrab-avaylash, ularni ilmiy ro'yxatga olish borasidagi ishlari tufayli V.Vyatkin viloyat gubernatori tomonidan yiliga 600 rubl maosh bilan Samarqand yodgorliklarining kuzatuvchisi etib tayinlanadi. Ilim-fan rivojiga qo'shgan hissasi inobatga olinib, Rus komitetining muxbir a'zosi etib saylanadi. V.Vyatkin o'zining arxeologik tadqiqotlari natijasida yig'ilgan buyumlarni imkoniyat darajasida Samarqand muzeyida qoldirishga harakat qilgan. Chunki o'sha

1896-yil 21-iyulda V.Vyatkinning faol ishtirokida Samarqand viloyati statistika komiteti qoshida Samarqand muzeyi rasman tashkil etiladi. Dastlabki kunlardan statistika komiteti a'zolari, o'lkashunos va sharqshunoslar muzeyga navbat bilan rahbarlik qilgan. Ular ichida Samarqandda muzey ishi rivoji uchun katta ishlarni amalga oshirgan, muzey direktori sifatida 1902-yildan 1911-yilgacha, so'ngra 1923-yildan 1930-yilgacha faoliyat ko'rsatgan Vasiliy Vyatkinning xizmatlari beqiyosdir.

V.Vyatkin 1869-yilda Semirecheda tug'ilgan. Ulg'aygach, Toshkentda o'qituvchilar tayyorlaydigan seminar-yada o'qiydi. 1894-yilda mazkur seminar-yani tamomlagach, Samarqandga yuboriladi. U oldiniga xalq o'qituvchisi bo'lib ishlaydi, ko'p o'tmay, viloyat boshqarmasiga tarjimon, keyinroq ish yurituvchi vazifasiga tayinlanadi. Ilmiy o'lkashunoslikka bo'lgan havasi uni Turkiston statistika komitetining Samarqand bo'limi faoliyati bilan bog'laydi va ko'p o'tmay o'sha komitetga a'zo qilib saylanadi hamda uning kutubxonasini boshqaradi.

V.Vyatkinning Samarqand viloyat statistika komitetidagi faoliyati keyinchalik uning qoshida tashkil etilgan muzey bilan bog'lanadi. U 1902-yilda Samarqand muzeyiga rahbarlikni boshlar ekan, Afrosiyob shahristonida va boshqa hududlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida yig'ilgan ashyolar hisobiga Samarqand muzeyi kolleksiyalarini boyitib boradi. Dastlabki vaqtda cherkov binosida-gi kichik bir xonada tashkil etilgan muzey kolleksiyalarining ko'payib borishi uchun alohida bino barpo etishni taqozo qiladi. Shu maqsadda V.Vyatkin

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi
Bosh muharrir: Farmon TOSHEV
 Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 328 nusxada chop etildi. Buyurtma 642. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2
 Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.
QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
 Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

